



## O‘ZLASHTIRISHI SUST BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI VA AHAMIYATI

*Toshkent viloyati Parkent tumani 31-maktabning*

*Oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

***Yusupova Munajat***

*“Rahbar uchun eng muhimi – bu donishmandlik”.*

*(Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridan)*

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ustozlari uchun o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch keladigan ya‘ni o‘zlashtirishi sust (bo‘sh o‘zlashtiruvchi) bolalar bilan ishlashning samarali metodlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida darsliklarda berilgan bilimlarni berishda o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta‘minlash, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish, bilimlarni egallashida yuzaga keladigan muammolarni yechishda qo‘llaniladigan metodikalar ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy kompetenlik, fiziologik yoki pedagogik sabablar, ijtimoiy muhit, pedagogik yondashuv, vizualizatsiya, individual yondashuv, “Kim topqir?” o‘yin metodi, "Atamalar estafetasi".

### **KIRISH.**

Har bir boshlang‘ich sinfda dars berish jarayonida fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarga duch kelamiz. Bu o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchidan yuqori malaka, kasbiy kompetenlik talab qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi yangi metodikalarni qo‘llashi, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning boshqa tengdoshlariga yetib olishini ta‘minlash lozim. Shundagina har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatini



to'g'ri yo'lga qo'ya olgan va har bir o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida: "Rahbar uchun eng muhimi – bu donishmandlik", - deya e'tirof etgan. Huddi shuningdek, boshlang'ich sinf ustozlaridan o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan ishlashda donishmandlik, pedagogik kasbiy kompetenlik va mahorat talab etiladi.

Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyarak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak.

Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir.

### **ASOSIY QISM:**

**O'zlashtirishi sust (bo'sh o'zlashtiruvchi) bolalar** – o'quv dasturlarini o'z tengdoshlariga nisbatan sekinroq qabul qiladigan va tushunadigan o'quvchilardir. Bu holat ko'pincha psixologik, fiziologik yoki pedagogik sabablar ta'sirida yuzaga keladi va bola bilan individual ishlashni talab qiladi.

### **Asosiy sabablari:**



- **Sogʻliq va psixologik omillar:** Koʻrish yoki eshitishdagi nuqsonlar, surunkali kasalliklar, charchoq yoki nutqning rivojlanmaganligi.

- **Rivojlanish xususiyatlari:** Diqqatning barqaror emasligi, xotira zaifligi, mantiqiy fikrlashning sustligi.

- **Ijtimoiy muhit:** Oilaviy muammolar, ota-ona eʼtiborsizligi yoki notoʻgʻri tarbiya.

- **Pedagogik yondashuv:** Oʻqitish uslubining bolaning qiziqishi va imkoniyatlariga mos kelmasligi.

#### **Taʼlim jarayonida yordam berish usullari:**

- **Individual yondashuv:** Topshiriqlarni qiyinlik darajasiga qarab kichik qismlarga boʻlib berish.

- **Ragʻbatlantirish:** Bolaning muvaffaqiyatini kichik yutuqlari uchun ham maqtash va baholash orqali ishonchini oshirish.

- **Vizualizatsiya:** Darsni tushunarli qilish uchun rasmlar, jadvallar va amaliy vositalardan keng foydalanish.

- **Mustaqil ishlashga oʻrgatish:** Oʻquvchini dars davomida faol ishtirok etishga jalb qilish, juftlik yoki guruhlarda ishlashni yoʻlga qoʻyish.

Buning uchun:

- beriladigan har bir topshiriq oʻquvchi imkoniyatlariga mos boʻlsin va qiziqish uygʻota olsin;

- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yoʻnaltirilsin, oʻquvchiga tushunarli boʻlsin;

- ishni bajarishda bolalarda oʻziga ishonch hissi uygʻonsin, ishga kirishishda ular oʻzlarida dadillik sezsin;

- mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma oʻquvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta, bunda boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchiga eʼtibor berish kerak;



-Topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

– topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi(parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

– topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;  
– darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha, sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishda me'yorga amal qilish kerak. Bolalar darsdan (og'ir, mashaqqatli mehnatdan) keyin tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr bilan vaqt o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishga, xulosa chiqarishga undashi lozim.

Tan olish kerakki, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayon. O'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uni samarali amalga oshirish mumkin.

Sust (harakatsiz, darsga yoki faoliyatga qiziqmaydigan) o'quvchilarni uyg'otish va darsga jalb qilish uchun ularda qiziqish va tezkor fikrlashni talab qiluvchi o'yinlar juda qo'l keladi. Bunday o'yinlar ularni zerikishdan xalos etib, faollikka undaydi.

Eng samarali o'yin turlari sifatida quyidagi o'yin metodlaridan foydalanishimiz mumkin:



• **"Tezkor savol-javob" yoki "Kobra":** O'quvchi o'rnidan turib, yonidagi partadoshiga yoki boshqa sinfdoshiga mavzu yuzasidan bitta tezkor savol beradi. Savol olgan o'quvchi darhol javob berib, keyingi sherigiga yangi savol yo'llashi kerak.

• **"So'z zanjiri" (yoki "Atamalar estafetasi"):** O'qituvchi bitta fan atamasi (masalan, "Informatika") ni aytadi. Keyingi o'quvchi shu so'zning oxirgi harfi (A) bilan boshlanadigan yangi so'z aytishi shart (masalan, "Algoritm").

• **Mantiqiy viktorinalar va boshqotirmalar:** O'quvchilarga qisqa va murakkab bo'lmagan mantiqiy savollar berish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi.

• **Rollarda ishlash (Teatrlashtirilgan o'yinlar):** O'quvchilarga mavzu qahramonlari yoki voqelikni rol ijro etish orqali tushuntirish ularni o'z qobig'idan chiqishga majbur qiladi.

• **Interaktiv platformalar:** O'quvchilarning texnologiyaga qiziqishidan foydalangan holda maxsus ta'limiy dasturlar va viktorinalardan foydalanish ajoyib samara beradi.

O'tilgan dars mavzusini, uning mohiyatini qisman yoki umuman tushunmagan bola bu holatni o'zi tushunmasligi mumkin yoki anglasa ham aytishga tortinishi mumkin. Bu holatda o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini ishga solib, dars mavzusini soddalashtirib, o'xshash misollar yordamida tushuntirishi mumkin, yoki har xil o'yinlar yordamida;

Masalan; fiziologik yoki pedagogik sabablar yordamida. Bunda topshiriq sodda qilib beriladi, vaqt belgilanadi, javobni past o'lashtiruvchi o'quvchidan so'raladi. Javob kam bo'lsa ham ijobiy tomoni ko'proq oshirilib maqtab, harakatlarini qo'llab-quvvatlab o'zi biladi, o'zi aytadi kabi rag'batlantirishlar bilan faollikka jalb etiladi.

Yoki "Kim topqir?" o'yin metodi yordamida. Bunda rasmlar orqali topshiriq beriladi. Javobni bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchidan so'raladi. Eng birinchi



vazifani bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchidan doim so'ralsa bu toifa o'quvchi o'z ustida izlanib tayyorgarlik ko'rib darsda faol bo'ladi. E'tiborsiz o'tirmaydi. O'quvchi sinfda o'zini erkin his etmasa bu o'quvchida o'zida ishonch va mehr yetishmaydi. O'qituvchi xushmuomalali bo'lib bu o'quvchini hech kimdan kam emasligini, unda ham iqtidor borligini takror va takror aytib o'ziga ishonchini uyg'otish shart. Bu toifa o'quvchilarga alohida mustaqil topshiriq berib javobini bir ozdan so'ng so'ralsa, o'quvchida ishonch tuyg'usi paydo bo'la boshlaydi. Har bir darsda o'quvchiga e'tibor berilsa, o'quvchini o'ziga bo'lgan ishonchi to'la kamol topadi.

### **XULOSA:**

O'quvchi mavzuni noto'g'ri aytsa yoki savollarga javob berolmasa, sinfdoshlari uni ustidan kulsa, bu o'quvchi darsda umuman gapirmaslikni, jim o'tirishni afzal ko'radi. Bu toifa o'quvchini gapirtirishdan avval o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarga: "...hech kimni javobi noto'g'ri emas, siz qo'rmasdan fikringizni ochiq bayon qiling",- deb o'quvchini quvvatlab borishi yaxshi samara beradi. Bu usulda ustozni e'tibori mavzuni to'g'ri yoki noto'g'riligida emas, o'quvchi tengdoshlari oldida o'z fikrini bayon eta olishida bo'ladi. E'tiborni shunga qaratish kerak. Navbatdagi javobda qisman haqsan, lekin mana bu fikring salgina noto'g'ri deb to'g'rilab yuborish lozim. O'quvchi fikrini erkin bayon qilishga shart-sharoit yaratish muhim.

Agar o'quvchida dankasalik, o'yinqaroqlik sezilsa, mavzuga qiziqmasa, diqqatni darsga jalb etolmasa u holda bu toifadagi o'quvchilar uchun sinfda musabaqa tashkil etib har bir savol, topshiriqni to'g'ri, aniq bajarishga jalb qilib, uni rag'batlantirib borish yaxshi natija beradi. O'qituvchidan sezilarli rag'bat olsa va o'zi ham nimagadir qodir ekanligini his qilsa eng o'yinqaroq, past o'zlashtiruvchi o'quvchi shu onda eng faol o'quvchiga aylanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doston Xolmatov. “Hikoyalarda davr va qahramon masalasi” maqola. SCIENTIFIC PROGRESS. Farg’ona davlat universiteti
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 1998.204-b.
3. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., “Ma’naviyat”, 2000. -112 bet.
4. B.Shukurova “Yangi davr hikoyachiligining o’ziga xos xususiyatlari” “O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” Respublika ilmiy konferensiyasi.
5. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. “Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish” Kurs o’tkazish uchun xrestomatiya.